

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BOYMIRZAYEV KAHRAMON HASANBOYEVICH

**ABU ABDULLOH RUDAKIYNING AXLOQIY QARASHLARIDA
ADOLAT TALQINI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Boymirzayev Kahramon Hasanboyevich

Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida adolat talqini:

tarixiy-falsafiy tahlil.....3

Боймирзаев Кахрамон Хасанбоевич

Интерпретация справедливости в нравственных взглядах

Абу Абдулло Рудаки: историко-философский анализ.....25

Boymirzaev Kahramon Hasanboevich

Interpretation of justice in the moral views of Abu Abdallah Rudaki:

historical and philosophical analysis48

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of works published.....40

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BOYMIRZAYEV KAHRAMON HASANBOYEVICH

ABU ABDULLOH RUDAKIYNING AXLOQIY QARASHLARIDA
ADOLAT TALQINI: TARIXIY-FALSAFIY TAHLIL

09.00.03 – Falsafa tarixi

falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fal834 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sharipova Oygul Tursunovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Karimov Sayimnazar Karimovich
falsafa fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil “28” April soat 09:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (641 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “15” aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil “15” aprel dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan siyosiy vaziyat, notartiblilik, ziddiyatlar, iqtisodiy notenglik, madaniy buzilishlar jamiyatning barqarorligi va xalq ishonchini qozonishda adolatli boshqaruv va inson qadrini yuksaltirishni talab etmoqda. Bu borada oʻrta asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining siyosiy va ijtimoiy qarashlari insonning maʼnaviy takomili va baxtga erishishi uchun adolatli jamiyat tashkil etishga, axloqiy barkamollikka erishishga, har bir shaxsning irodasi va huquqlariy ehtirom qilinishiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bois siyosiy inqirozlarning oldini olish va tenglik, inson huquqlarini himoyasini taʼminlashda jahon sharqshunosligida buyuk shaxsiyatlardan biri boʻlgan Abu Abdulloh Rudakiy axloqiy qarashlaridagi adolat konsepsiyasini, insonning nazariy va amaliy faoliyati, kamoloti uchun zarur boʻlgan axloq va eʼtiqod uygʻunligiga erishishda jamoa manfaati, tartib-intizom va maʼnaviylik mezonlarining falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo ilm-fani, ilgʻor ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida Sharq mutafakkirlarining ilm-fan, falsafa va siyosiy hayotga taʼsirini, rivojiga qoʻshgan hissasini oʻrganish, axloqiy qarashlarining oʻziga xos xususiyatlarini asoslab berishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oʻrta asrlar Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlarini oʻrganish, ularning maʼnaviy tarbiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlarini qayta baholash, ilmiy merosini tizimlashtirish zamonaviy jamiyatning masʼuliyatlilik, axloqiy barkamollik va haqiqiy adolatni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Ayniqsa, oʻrta asrlarning buyuk shoir-mutafakkiri boʻlgan Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarini oʻrganish, undagi adolat talqinini tarixiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish va bu boradagi adolat mezoni sifatida ilmni, aql, bilim, maʼrifatni targʻib etuvchi gʻoya va qarashlarining falsafiy ahamiyatini aniqlash zarurati ortib bormoqda.

Oʻzbekistonda “Kun tartibi – 2030” strategik dasturi asosida tinchlik va xavfsizlikni taʼminlash, barqaror rivojlanish, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini himoyalashga, birdamlik va bagʻrikenglik tamoyillari amal qiladigan jamiyat barpo etishga hamda xalq farovonlik darajasi tobora ortirib borishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. “Milliy davlatchiligimiz tarixiga nazar solsak, oʻtmishda ham ijtimoiy davlat qurish gʻoyasi turli shakl va koʻrinishlarda ilgari surilganiga guvoh boʻlamiz. Xususan, turli davrlarda yashagan Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muxammad Bobur, Mahmudxuja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi qator buyuk mutafakkirlarimizning hayotda ezgulik va adolat, tenglik va hamjihatlik, ilm va maʼrifat haqidagi qarashlarini ana shunday yagona tamoyil oʻzaro birlashtirib turadi, desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz”¹. Ayniqsa Abu Abdulloh Rudakiy taʼlimotidagi adolat konsepsiyasining maʼnaviy-axloqiy qirralarini, jamoa manfaati, tartib-intizom, eʼtiqod va maʼnaviylik mezonlarini hamda ijtimoiy tarbiyani yoʻlga qoʻyishdagi imkoniyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2024. – Б.62.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi 466-son “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 17-noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta’minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon ilm fani vakillari va olimlari tomonidan Sharq mutafakkirlari ilmiy merosi har tomonlama tadqiq etib kelinmoqda. Abu Abdulloh Rudakiy qarashlarining tahlili, falsafasining ma’naviy-axloqiy jihatlari G‘arbda tadqiqotchilar E.Braun, U.Djekson, D.Ross, R.Levi, P.Xorn, G.Ete, Ch.Pikking, I.Xammer tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, A.Ashraf, K.Y.Bosvort, F.de Blois, D.Hamid, R.M.Chopra, S.Minoo kabi tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlari ham mavzuga bevosita aloqadordir².

² The Cambridge history of Arabic Literature, Religion, Learning and Science in the Abbasid Period. Cambridge, 1990. P.28., Edvard Braun. "Bir yil forslar orasida" (1893), 4 jildli "Eron adabiyoti tarixi" (1902-24), "Hozirgi Eron poeziyasi va matbuoti" (1914), "Arab tabobati" (1921)., Уильям Лоутер Джексон и гражданская война в горах Западной Вирджинии; Quarrier Press, Чарльстон, Западная Вирджиния; 3 октября 2003 г.; ISBN 978-1-891852-27-5., Denison Ross and Alexandre Csoma de Koros" Journal of the Royal Asiatic Society (Third Series) 21.3 (2011): 366., Horn, Paul; Underwood, Lee (1990). Inside Paul Horn: The Spiritual Odyssey of a Universal Traveler. Harper., Charlz Pikking. Oliver Tvistning boshidan kechirganlari. Nashriyot: Yangi Asr Avlodi. 2016. 260-b Ashraf, A. (2019). A review on mobile internet protocol (Mobile IP). International Journal for Scientific Research & Development, 7(05), 2321-0613., K.Y.Bosvort – Musulmon sulolalari. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent, 2007. www.ziyo.uz.com kutubxonasi., François Clément de Blois. Proceedings of the Arabic and Islamic sections of the 35th international congress of Asian and North African studies, part one, JRAS, 2000, pp. 239-241., Rypka, J. (2013). History of Iranian literature. Springer Science & Business Media., Dabashi, H. (2012). The Arab spring: The end of postcolonialism. Bloomsbury Publishing., Braun, E. G., & Bailey, R. W. (1974). Soft (hydrophilic) contact lenses in US Army aviation: An investigative study of the

Mashhur sharqshunos Adam Mets o‘zining “Musulmon renessansi” asarida IX-X asrlarda musulmon Sharqida yuz bergan madaniy rivojlanishni tadqiq etgan. Shuningdek, Gustav fon Gryunebaumning 1970 yili Londonda nashr etilgan “Klassik islom” kitobi, “Zamonaviy islom: madaniy o‘zlikni anglash bo‘yicha tadqiqotlar” va “Musulmon sivilizatsiyasida umumiylik va har xillik” kabi to‘plamlarida o‘rta asrlar islom ilmiy rivojlanishi mezonlari tizimlashtirilgan³.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida musulmon Renessansi mutafakkirlarining hayoti va ijodiy faoliyatini tadqiq qilgan olimlar qatoriga Y.Bertels, R.Talman, I.Braginskiy, A.Yunusova, A.Mirzoyev va Shiblii No‘moniy kabi tadqiqotchilarini kiritish mumkin. Shuningdek, Said Nafisiy, Doktor Xalil Raxbar, Muxammad Sodiq, Zabixullo Sofiy, Badiuzzaman Foruzanfar Rudakiy merosini izchil o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Jumladan, S.Amir Rudakiyshunoslik sohasida 2015-yilda “Ustod Rudakiy birinchi milliy va jahon shoiri” asarini nashr qilgan⁴.

O‘zbekistonda SH.Shomuhamedov, A.Tagirjanov, E.Ochilov, A.Boboxonov, A.Zunnunov, N.Komilov, U.Mahkamov, U.Uvatov, R.Komilov, E.Yusupov, G.Navro‘zova, O.Musurmonova, I.Choriyev, S.Nishonova, Sh.Olimov, K.Qilicheva, G.Izbullayeva, S.Xodjaniyazov kabi olimlar olib borgan tadqiqotlardan ma‘lum bo‘ladiki, Abu Abdullo Rudakiyning falsafiy qarashlari Markaziy Osiyo xalqlarining axloqiy qarashlarini rivojlanishida muhim o‘rinni egallab kelgan. B.Namozov, I.Siddiqov, Q.Nazarov, B.Turayev, Q.Shodmonov, H.Salomova, N.Safarova, S.Choriyev, A.Xuseynova, O.Sharipova, A.Boltayev, E.Zoyirovlarning tadqiqotlarida Abu Abdullo Rudakiy ma‘naviy merosining yoshlar tarbiyasi, ularning barkamolligi, farovon va tinch yashashida mutafakkir falsafiy qarashlarining o‘rni tadqiq etilgan⁵.

Bausch and Lomb Soflens™. Optometry and Vision Science, 51(7), 470-477., Chopra, R. M. (2000). Why PACS is no longer a four-letter word. Radiology management, 22(5), 44-48., Minoo, S., & Ghasemi, F. (2024). Automated Teeth Disease Classification using Deep Learning Models. International Journal of Applied Data Science in Engineering and Health, 1(2), 23-31. The Cambridge history of Arabic Literature, Religion, Learning and Science in the Abbasid Period. Cambridge, 1990. P.28.

³ Мец А. Мусульманский ренессанс. –Москва.: Наука. 1973.; Грбнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерки истории (600-1258). –Москва. 1986.; G.E. von Grunebaum. Modern Islam: Search for Cultural Identity. Berkely and Los Angeles, 1962.; G.E. von Grunebaum.Unity and Variety in Muslim Civilization. Chicago, 1955.

⁴ Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы, М., 1960.147 с., Брагинский И. С. Абу Абдаллах Джафар Рудаки. –М.: Наука, 1989. 91 с., Тагирджанов А. Т. Рудаки. Жизнь и творчество. История изучения. –Изд-во Ленинградского университета, 1968., Мирзоев А. М. Рудаки. Жизнь и творчество. –М.: Наука, 1968.180 с., Маллаев Р.К., Рахимов Н.Х.. г. Худжент, Таджикистан. Некоторые философско-этические и эстетические взгляды Абу., Nafisiy Said. Jannatning yarim yo‘lida, T., 1974. 256. شفقت. (2011). 62-53, (2)3. بوی جوی مولیان در نیشابور سروده شده است نه هرات. متن شناسی ادب فارسی. Amir, S., Hafidi, M., Merlina, G., & Revel, J. C. (2005). Sequential extraction of heavy metals during composting of sewage sludge. Chemosphere, 59(6), 801-810.

⁵ Namozov, B. B. (2018). The views of Khoja Muhammad Porso on the soul of The Human and the gnoseology of Sufism. Teoretical & AppLied Science Philadelphia, USA.–2018,5, 61., Siddiqov, I. B. (2022). Mutual Synthesis Of Medieval Islam Gnoseology And Theology. European Journal of Research Development and Sustainability, 3(2), 117-121. Siddiqov, I. (2022). Dialectical and synergetic features of the development of theological and epistemological views in medieval eastern islam. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(2), 79-83., Ёкубов, Исламжон. (2021). Мустакиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Тошкент: Nurafshon business., Nazarov, K., (2020). Leading tendencies in the development of cultural and spiritual identity of the peoples of Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(8), 5525-5538., Тураев, Б. О. (1994). Философское обоснование концепций о развитии пространственно-временной структуры бытия (онтологические и гносеологические аспекты), Шадманов К. Английская духовность и язык. - Дюссельдорф: Издво Lambert, 2015. - С. 264.; Salomova H. Miqdor-me‘yorning tarkibi sifatida //центр научных

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar muammoning o'rganilganlik darajasini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjudligi va ilmiy izlanishlar shakllanishining bir qator jihatlarini tavsiflaydi. Biroq, tan olish kerakki, Abu Abdulloh Rudakiy axloqiy qarashlarini, falsafiy tafakkuridagi adolat konsepsiyasini rivojlanish jarayonlarini, uning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish bo'yicha yaxlit kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda ushbu muammoga ilmiy-nazariy yondashishga, metodologik asoslarini ishlab chiqishga, uning strukturaviy-funksional jihatdan uyg'unlashtirish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abu Abdulloh Rudakiy axloqiy qarashlaridagi adolat konsepsiyasining falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Abu Abdulloh Rudakiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir etgan madaniy muhit, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va omillarni tadqiq etish;

mutafakkir axloqiy qarashlarining nazariy-metodologik asoslarini va unda ifodalangan adolat tushunchasining konseptual xususiyatlarini ochib berish;

Abu Abdulloh Rudakiyning boshqaruvda odillik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga oid qarashlarini tahlil qilish;

ijtimoiy davlat barpo etish sharoitida Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlaridagi adolat talqinining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini asoslab berish;

ma'rifiy jamiyat konsepsiyasini amalga oshirishda mutafakkirning adolat tog'risidagi g'oyalarini zamonaviy jamiyatga transformatsiyalash istiqbollari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Abu Abdulloh Rudakiy ilmiy merosi, ijtimoiy-axloqiy qarashlari tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar va nazmiy asarlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida ifodalangan adolat tamoyili, uning tarixiy-falsafiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini asoslab berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz,

публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 20. – №. 20., Safarova, N.O. (2020). Sharq mutafakkirlarining oila to'g'risidagi qarashlari. Студенческий вестник, (18-10), 55-57., Чориев С. Ренессанс даври. Европа фалсафаси.-Тошкент: Tafakkur qanoti, 2015. – Б.112; Хусейнова А. А. Общечеловеческие ценности в мировоззрении Абдурахмана Джамии. дис. канд.филос.наук : Ташкент, 1994.с – 154с.; Tursunovna, S. O. (2019). The concept of tolerance in Islam and mysticism. Indonesian Journal of Innovation Studies, 8., Boltayev, A.A. (2021). Philosophical Analysis of Religious Concepts in the Works of Muhyiddin Ibn Arabi. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 2(6), 83-84.; Xalilovich, Z. E. (2024). Ya'qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari. analysis of modern science and innovation, 1(2), 265-279.

retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abu Abdulloh Rudakiy axloqiy qarashlaridagi adolat konsepsiyasi insonning o‘z-o‘ziga nisbatan adolati (axloqiy raxez), insonlar o‘rtasidagi adolat va boshqaruvdagi adolat tarzida tasniflanishi hamda bu konsepsiyaning o‘z-o‘zini tarbiyalash, ichki poklikka intilish kabi insoniy, tenglik, huquq va burchlarini anglash, mehr-shafqat kabi shaxslararo hamda boshqaruvda adolatni asosiy mezon sifatida ko‘rish, tinchlik va farovonlik kabi siyosiy tamoyillari ochib berilgan;

mutaffakirning adolatga oid g‘oyalari insonning nazariy va amaliy faoliyati kamoloti uchun ilmiy bilishni amaliy ehtiyojlarga yo‘naltirish, faol ijobiy faoliyat sifatida “yaxshi ish” – axloq va e‘tiqod uyg‘unligiga erishishga olib borishi hamda shaxsni muvaffaqiyat va kamolot sari yetaklashi asoslab berilgan;

Abu Abdulloh Rudakiyning “Modari may” qasidasidagi ilmning insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, hayotdagi haq va nohaqlikni anglash, adolatli qaror qabul qilish kabi adolat, hikmat – hayotiy tajriba va donolikni shakllantiruvchi vosita kabi hikmatni sayqallovchi kuch, ezgu yo‘lni tanlash, ma‘naviy yuksalish, axloqiy komillikka yetaklash kabi hayot yo‘lini yorituvchi nur mezonlari hamda madaniy kontekstdagi aql, bilim, ma‘rifat, san‘atga oid xususiyatlari mantiqiy isbotlangan;

adolat kategoriyasining lirik-ruhiy va ma‘naviy-axloqiy tahlili asosida “haq”, “meyor”, “haqiqat”, “burch” kabi omillari hamda jamoa manfaati, tartib-intizom, e‘tiqod va ma‘naviylik kabi prinsiplari aniqlashtirilgan hamda ulardan ma‘rifiy jamiyat barpo etishda adolat tarbiyasining yuksak axloqiy g‘oyalarga sodiqlik, axloqan pok, ma‘nan boy, vijdonli, mustaqil fikrga ega bo‘lgan insonlarni yetishtirish, milliy iftixor va milliy g‘urur tuyg‘ularini mustahkamlashda foydalanish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida islomning aqidaviy, axloqiy, fiqhiy va ratsional asoslari muhim rol o‘ynagan va din bilan falsafa orasidagi uyg‘unlik munosabatlarini oliy darajaga ko‘tarilganligi, erkin ijtimoiy muhit va rag‘batlantiruvchi sharoit ilm-fan, ijod bilan shug‘ullanish eng daromadli va muhtaram kasbga aylanganligi asoslab berilgan;

mutafakkir falsafiy qarashlarida hayotning o‘tkinchi tabiatiga bo‘lgan nuqtayi nazari va hayot lahzalaridan bahramand bo‘lish muhimligi, tabiat va uning insonga ta’siri, go‘zallik va uyg‘unlik haqidagi tushunchalari, haqiqiy baxtga erishish uchun muhim deb bilgan axloqiy qadriyatlar va fazilatlar haqidagi ta’limotlari ilgari surilganligi isbotlangan;

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy adolat jamiyat hayoti va rivojlanishining iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy sharoitlarini ixcham shaklda aks ettirilgan hodisa sifatida baholangan hamda inson huquqlari va demokratiya g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq ekanligi Abu Abdulloh Rudakiyning adolat konsepsiyasi asosida ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma‘lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi

ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Markaziu Osiuo xalqlarining ijtimoiu-siuosiu, madaniu va falsafiu tafakkur rivoji, uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq yetishga qaratilgan ilmiu-tadqiqot ishlarida nazariu-metodologik asos sifatida, shuningdek, IX-XI asrlar ijtimoiy-ma'naviy an'alarini anglashda, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishini, adolatni axloqiy mafkura sifatida talqin qilishda, zamonaviy ta'limda va ijtimoiy tarbiyada adolat va insofning ahamiyatini tushuntirishda, korrupsiyaga qarshi kurash va ijtimoiy intizomni mustahkamlashda, turli din va madaniyatlardagi umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligini ta'minlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan ma'naviyat va ma'rifat markazlari amaliy faoliyatida, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, ijtimoiy sohada faoliyat olib boruvchi institutlarning faoliyatlarida, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining buyuk mutafakkirlarning ilmiy va diniy merosini o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ularning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish faoliyatida shuningdek, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan ko'rsatuvlar va materiallarni tayyorlashda, falsafa, etika-estetika, madaniyatshunoslik kabi fanlarni o'qitishda va ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda, korrupsiyaga qarshi kurash va ijtimoiy intizomni mustahkamlash uchun amaliy qo'llanmalar ishlab chiqish, insonparvarlik va adolatning zamonaviy talqinlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida adolat talqining tarixiy-falsafiy tahlili bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Abu Abdulloh Rudakiy axloqiy qarashlaridagi adolat konsepsiyasi insonning o'z-o'ziga nisbatan adolati (axloqiy raxez), insonlar o'rtasidagi adolat va boshqaruvdagi adolat tarzida tasniflanishi hamda bu konsepsiyaning o'z-o'zini tarbiyalash, ichki poklikka intilish kabi insoniy, tenglik, huquq va burchlarini anglash, mehr-shafqat kabi shaxslararo hamda boshqaruvda adolatni asosiy mezon sifatida ko'rish, tinchlik va farovonlik kabi siyosiy tamoyillari doir ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-son "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining electron-transdisiplin platformasini yaratish" (2021-2022 yy) amaliy loyihasi doirasida nashr etilgan ishlarda foydalanilgan. (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 15-noyabrdagi 04/11-10705-son ma'lumotnomasi). Natijada, mutafakkirning axloqiy qarashlarida insonning kamoloti uchun ilmiy

bilishning o'zni va ahamiyati, faol ijobiy faoliyat sifatida axloq va e'tiqod uyg'unligiga erishish samaradorligini ochib berishga xizmat qilgan;

mutafakkirning adolatga oid g'oyalari insonning nazariy va amaliy faoliyati kamoloti uchun ilmiy bilishni amaliy ehtiyojlarga yo'naltirish, faol ijobiy faoliyat sifatida "yaxshi ish" – axloq va e'tiqod uyg'unligiga erishishga olib borishi hamda shaxsni muvaffaqiyat va kamolot sari yetaklashiga doir nazariy umumlashma va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradikompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradikompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 4-apreldagi 02-31-456-son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning mutafakkirning axloqiy qarashlarida insonning kamoloti uchun ilmiy bilishning o'zni va ahamiyati, faol ijobiy faoliyat sifatida axloq va e'tiqod uyg'unligiga erishish borasidagi bilimlarining oshishiga xizmat qilgan;

Abu Abdulloh Rudakiyning "Modari may" qasidasidagi ilmning insonni to'g'ri yo'lga boshlash, hayotdagi haq va nohaqlikni anglash, adolatli qaror qabul qilish kabi adolat, hikmat – hayotiy tajriba va donolikni shakllantiruvchi vosita kabi hikmatni sayqallovchi kuch, ezgu yo'lni tanlash, ma'naviy yuksalish, axloqiy komillikka yetaklash kabi hayot yo'lini yorituvchi nur mezonlari hamda madaniy kontekstdagi aql, bilim, ma'rifat, san'atga oid xususiyatlariga doir ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-106-son "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G'arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi" (2017-2020 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida nashr etilgan ishlarda foydalanilgan. (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 29-martdagi 04/11-237-son ma'lumotnomasi). Natijada, mutafakkirning axloqiy qarashlarida insonning kamoloti uchun ilmiy bilishning o'zni va ahamiyati, faol ijobiy faoliyat sifatida axloq va e'tiqod uyg'unligiga erishish samaradorligi, mutafakkirning axloqiy qarashlaridagi adolat mezoni sifatida "ilm" va "madaniyat" kategoriyasini ochib berishga xizmat qilgan;

adolat kategoriyasining lirik-ruhiy va ma'naviy-axloqiy tahlili asosida "haq", "meyor", "haqiqat", "burch" kabi omillari hamda jamoa manfaati, tartib-intizom, e'tiqod va ma'naviylik kabi prinsiplari aniqlashtirilgan hamda ulardan ma'rifiy jamiyat barpo etishda adolat tarbiyasining yuksak axloqiy g'oyalarga sodiqlik, axloqan pok, ma'nan boy, vijdonli, mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlarni yetishtirish, milliy iftixor va milliy g'urur tuyg'ularini mustahkamlashda foydalanish zaruratiga doir ilmiy yangiliklardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan "Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti" 41-bandi "Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish"ga qaratilgan targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 9-yanvardagi 319/1-son ma'lumotnomasi).

Natijada, mutafakkirning axloqiy qarashlaridagi “haq”, “meyor”, “haqiqat”, “burch” tushunchalari hamda jamoa manfaati, tartib-intizom, e’tiqod va ma’naviylik mezonlari borasida qarashlari belgilangan ma’naviy-ma’rifiy vazifalar ijrosini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, uning hajmi 159 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi, muammoning o’rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo’llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Abu Abdulloh Rudakiy ilmiy-falsafiy merosini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida IX-XI asrlarda Sharqdagi tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va ijtimoiy muhit taadqiq etilgan hamda Abu Abdulloh Rudakiyning hayot yo’li, axloqiy qarashlarining shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan omillar ochib berilgan.

Abu Abdulloh Ja’far Rudakiy taxminan hijriy 860-yilda Samarkand yaqinidagi Panjrudak qishlog’ida, dehqon oilasida tug’ilgan va IX asr fors-tojik adabiyoti va tafakkurining yirik namoyandasi hisoblanadi. Uning hayoti haqida biografik ma’lumotlarning aksariyati tarixiy qo’lyozmalar va og’zaki ravishda uzatilgan afsonalariga, zamondoshlari va ayrim adabiy qo’lyozmalarga asoslanadi. Rudakiy alohida qobiliyat sohibi bo’lib, “sakkiz yoshida Qur’onni xatm qilib, qorilikka o’tgan va she’r hamijod qila boshlagan. Chiroyli ovozi tufayli ashula aytish va ud asbobini chalishga kirishib, bu san’atda mahorat ko’rsatdi”⁶. 1956 yili shoir kalla suyagini tekshirib ko’rgan antropolog-haykaltarosh M.Gerasimov ko’z kosasida qolgan izlardan shoirning ko’zi kuydirilib ko’r qilinganligini aniqladi⁷.

⁶ Абдурахмон Жомий. Баҳористон / Ш. Шомухамедов таржимаси. — Тошкент, 1997. — Б.67-68.

⁷ Абдурахмон Жомий. Баҳористон(Ш. Шомухамедов таржимаси). - Тошкент, 1997. —Б. 69. <https://talaba.su/abu-abdullo-rudakiy-hayoti-va-ijodi>

Tadqiqotda shoir merosi 700 mingdan 1 million 300 ming misragacha ekanligi asoslab berilgan. Afsuski, bizga qadar bu muazzam merosning juda oz qismi yetib kelgan. 1956 yili Rudakiyning 1100 yilligi munosabati bilan uning parokanda she'rlari bir yerga jamlanganda 1840 misrani tashkil etgan edi. 1957 yili shoir she'rlari zabardast mutarjim va forsiy adabiyot bilimdoni Munirxon Muinzoda tarjimasida o'zbek tilida ham bosilib chiqadi. Keyinchalik fors-tojik so'z san'atining yirik tadqiqotchisi va tarjimoni Shoislom Shomuhamedov tarjimasida Rudakiy asarlari yana ikki marta nashr etiladi⁸.

Sadriddin Ayniy: "Ustod Rudakiy o'z she'rlaridan devon tuzgan dastlabki shoirdir", - deb ma'lumot beradi⁹. "Bo'yi jo'yi Mo'liyon oyad hame" (Mo'liyon arig'ining bo'yi kelmoqdadir) misrasi bilan boshlanadigan g'azali unga favqulodda shuhrat keltirgan. Ilmu adab ahli Rudakiy uslubini "sahli mumtane", ya'ni, "osonu mumkin emas", deb baholaganlar¹⁰. Rudakiyning yoshlik davridagi faoliyati va hayoti haqida Muhammad Avfiyning "Lubob al-Albob" asarida uning tug'ma ko'rliigi haqida ta'kidlab o'tadi. Avfiy ma'lumotlariga ko'ra, Rudakiy juda ham iste'dodli bo'lib, izchil fikrlashi bilan ajralib turgan¹¹.

Dissertatsiyada Abu Abdulloh Rudakiy ijodida falsafiy qarashlar tahlil etilgan. U hayotning mazmuni, inson taqdiri va ma'naviy kamoloti masalalari bilan chuqur qiziqqanligi ta'kidlangan. Rudakiy she'r va nasriy asarlarida dunyo va inson borlig'i haqidagi tushunchalarini ifodalagan. Rudakiy asarlari tahlil qilinarkan, uning hayot falsafasiga singib ketgan bir qancha asosiy g'oya va tushunchalarni ajratib ko'rsatilgan. Asosiy g'oyalardan biri hayotning o'tkinchi tabiatini anglashdir. Rudakiy falsafiy qarashlari, mavjud hamma narsaning vaqtinchaligi va o'tkinchiligini anglash bilan sug'orilgan va bizni hozirgi daqiqani qadrlashga va zavq olishga undaydi. Rudakiy axloqiy qarashlari zamonaviy jamiyatda adolat, halollik, donolik va mehr-oqibat muhimligini eslatib turadi. U ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga, zamonaviy jamiyatda dolzarb va muhim bo'lgan ezgu amallarni ongli ravishda tanlashga chaqiradi. Abu Abdulloh Rudakiyning falsafiy qarashlari zamonaviy dunyoga, odamlar tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi. Uning hayotning o'tkinchi tabiati, tabiat bilan uyg'unlik, go'zallik va axloqiy qadriyatlar haqidagi g'oyalari dolzarb bo'lib qolmoqda va odamlarni hayotida ma'no va uyg'unlik izlashga undaydi. Uning adolat, halollik, rahmshafqat va donolik haqidagi ta'limotlari axloqiy meyorlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi va og'ir hayotiy axloqiy vaziyatlarda harakatlarimiz va qarorlarimizga rahbarlik qilishi shubhasizdir.

Tadqiqotchi fikricha, Abu Abdullo Rudakiyning falsafiy qarashlari jamiyatning intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun qimmatli tamoyillarni o'z ichiga oladi. Undan tanqidiy fikrlash, haqiqatni idrok etish va tashqi dunyo bilan uyg'unlikka intilish qobiliyatiga ega bo'lgan barkamol va dono shaxslarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini yaratishda foydalanish mumkin.

⁸ Qarang: Абу Абдулло Рудакий. Бобо Тохир. Сайланма. — Тошкент, 1994. — Б.7-81.

⁹ Айний С. Асарлар. Саккиз жилдлик. 8-жилд (Мақолалар). — Тошкент, 1967. — Б.193.

¹⁰ Qarang: Шомухамедов Ш. Одамийлик иншоиси. — Тошкент, 1984.

¹¹ Мухаммад Садик Хумаюнфар, Рудаки. - Техрон, 1338. — Б.34

Dissertatsiyada Rudakiy falsafiy qarashlarining uch asosiy jihati ochib berilgan:

*Birinchi*dan, uning hayotning o‘tkinchi tabiatiga bo‘lgan nuqtayi nazarini va hayot lahzalaridan bahramand bo‘lish muhimligi haqidagi ta’limotining xususiyatlari;

*Ikkinchi*dan, uning tabiat va insonga ta’siri, go‘zallik va uyg‘unlik haqidagi tushunchalari;

*Uchinchi*dan, haqiqiy baxtga erishish uchun muhim deb bilgan axloqiy qadriyatlar va fazilatlar haqidagi ta’limotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, IX-XI asrlar Sharqda kuchli markaziy hokimiyatning parchalanishi va yangi davlatlarning paydo bo‘lishi bilan ajralib turdi. Sharq siyosiy parchalanishga qaramay, madaniy va ilmiy yutuqlar, xalqaro savdo hamda ijtimoiy xilma-xillik bilan ajralib turdi. Bu davr Islom oltin asri sifatida keyingi asrlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Somoniylar ilm-fan, adabiyot va san’at rivojiga hissa qo‘shdilar va bu Rudakiy ijodi uchun qulay sharoit yaratdi. Abu Abdullo Rudakiy fors-tojik mumtoz she’riyatining asoschisi hisoblanib, adabiyot va madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarini shakllantirgan omillar sifatida ichki dunyo va ma’naviyatga urg‘u berish, saroy madaniy muhitining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga imkon yaratishi, hayotiy tajribasi, davrning madaniy-iqtisodiy sharoiti va turli intellektual oqimlarni belgilash mumkin. Saroyda o‘tkazilgan adabiy majlislar, falsafiy munozaralar va ilmiy muhit uning insonparvarlik, adolat va bilimga bo‘lgan hurmat kabi qarashlarini shakllantirdi. Rudakiyning axloqiy g‘oyalarida kamolot, saxovat, inson qadr-qimmat, hukmdorlik adablari, “javonmardlik” tamoyillari uyg‘unlashgan. Saroy hayotidagi fitna va adolatsizliklarni ko‘rgani uchun u o‘z she’rlarida halollik, kamtarlik kabi fazilatlarini targ‘ib qilgan va bu fazilatlar hozirgi zamon jamiyati uchun muhim hikmat va ilhom manbayi bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiyaning **“Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida adolat kategoriyasining tarixiy-falsafiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Abu Abdulloh Rudakiyning axloqiy qarashlarida adolat tushunchasining ifodalanishi va unig konseptual asoslari hamda boshqaruvda odillik va ijtimoiy adolatni ta’minlashga oid qarashlarining falsafiy tahlili amalga oshirilgan.

Adolatparvarlikni qaror toptirish butun jamiyat uchun muhim institutsional vazifadir. Biroq, mavjud adolatsizliklarni bartaraf etish yuzasidan ko‘plab siyosiy urinishlarga qaramay, ijtimoiy falsafada bu muammo yetarli darajada muhokama qilinmagan. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishi sohalarida tub yangilanishlar joriy etilmoqda. Yangi boshqaruv tizimi va zamonaviy tuzilmalar yaratildi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllanmoqda”¹². Terminologik nuqtai nazardan, “adolat” tushunchasi o‘ziga xos bo‘lib, uning kundalik ma’nosi deyarli hamma tomonidan bir xil tushuniladi, lekin falsafiy terminologiyadagi murakkablik ko‘plab nazariy va amaliy muammolarni yuzaga

¹² Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – Б. 47.

chiqaradi. Adolat kategoriyasining qanday mazmunni anglatishi haqidagi savol uzoq o'tmishdan hozirgi kunga qadar barcha tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Istilohda adolat bu o'rtacha yo'l tutishlik, me'yorni saqlashlik, insof qilish degan ma'nolarni anglatadi. Mavjud diniy va ilmiy nazariyalar tahlili adolat ikki xil namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bulardan *biri* inson va yaratgan orasidagi adolat bo'lsa, *ikkinchisi* esa insonning boshqa insonlar bilan bo'lgan adolatidir. Insonning yaratgan bilan adolati shuki, inson yolg'iz Alloh taolga ibodat qiladi va unga boshqani sherik qilmaydi. Insonning boshqa insonlar bilan adolati shundayki, inson boshqa insonlarni eshitadi, ularga zulm qilmaydi, ularning manfaatlarini yuzaga chiqarishda yordam beradi¹³.

Tadqiqotda Abu Abdullox Rudakiyning axloqiy qarashlarida insoniy adolat va ijtimoiy adolat tushunchalariga alohida e'tibor berilganligi ta'kidlanadi. Insoniy adolat o'z baxt-saodati yo'lida mehnat qilishi, atrofdagilarga ezgu munosabatda bo'lishi, o'zgalar baxtini o'z baxti deb bilishi, o'zining va boshqalarning muvaffaqiyatidan quvonishi inson barkamolligining belgisidir. Abu Abdulloh Rudakiy insonning fazilat va nuqsonlarini bir olam deb hisoblaydi hamda fazilatni yaxshilik deb madh etadi, nuqsonlarni esa yomonlik deb qoralaydi. U jannat va do'zaxni insonning mehnati, fe'l-atvori bilan belgilaydi. Haqiqatdan ham fe'li yomon, janjalni yaxshi ko'radigan, yomonlikni kasb qilgan, dangasa odamlar davrasi do'zax bilan barobardir. Aksincha, yaxshi xulqli, mehnat bilan atrofni bog'u-bo'ston qilib, mehrini odamlardan ayamagan insonlar makoni bamisoli jannatdir. Insonning qo'li cho'lni gulistonga, bog'u-bo'stonga aylantirishini xalqimiz qadimdan bilishadi.

IX-X asrlar boshida faoliyat yuritgan Markaziy Osiyo va Eron mutafakkirlari ham jamiyatda adolatsizlik va zo'ravonlikni tugatishda, adolatni qaror topishida ideal hukmdorning ahamiyati yetakchi ekanligiga ishonishgan. Shu jumladan, Abu Abdulloh Rudakiy ham o'z ijodida shu yo'nalishga, ya'ni dono va adolatli hukmdor g'oyasiga katta e'tibor qaratadi. Rudakiyning bir qator she'rlarida, xususan, "May onasi" qasidasida donishmand va odil hukmdor g'oyalarini ilgari surgan. Rudakiyning ushbu qasidasi Seyiston muzofoti hukmdori Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammad ibn Xalaf ibn Laysga bag'ishlangan. "May onasi" qasidasi milodiy 923 yilda bitilgan¹⁴. Unda odil hukmdorning timsoli qasidaning yetti bo'limida keltiriladi. Rudakiy dastlabki to'rt baytida amir Abu Ja'farning ismini keltiradi, uni Eronning iftixori, adolatli hukmdor, mamlakat va olamga ziyo olib keluvchi, taraqqiy ettiruvchi sifatida tavsiflaydi. 5-9 baytlarda shoir amirning bilimi va zokiyligi haqida so'zlaydi, bilim darajasi bo'yicha uni Suqrot va Aflotun darajasiga ko'taradi, barcha mutafakkirlar faylasuflar undan ilm o'rganishlari zarurligini ta'kidlaydi. 10-12 baytlarda Rudakiy amir fe'l-atvorining sofligi, uning oliyjanoblighi haqida so'zlaydi. Amir oliyjanoblighi va xushfe'llighi bo'yicha Sulaymon alayhi salomga tenglashtiriladi. 13-14 baytlarda Abu Ja'farning jasorati va mardligi tavsiflanadi. 15-17 baytlarda shoir amirning saxiylighi haqida so'zlaydi, uning tavsifiga ko'ra, amir olimlar va donishmandlarni davlat lavozimlariga

¹³ <https://islom.uz/maqola/20231>

¹⁴Нафиси С., Ахвал ва аш'аре Абу Абдаллах-Джафар... Рудаки, т. 1-3. - Техрон, 1310-1319. - Б-78

tayinlar ekan, qashshoq shoirlar uning huzuridan boy bo‘lib qaytar ekanlar, saxiylik bo‘yicha hech kim amirga tenglasha olmas ekan¹⁵. 18-21 baytlarda Rudakiy adolat, odillik va donishmandlikda hech kim amirga tenglasha olmas ekan. Uning hukmronligi davrida mamlakatda qashshoqlar va zaiflar yo‘q ekan, hamma adolatga erishgan, zo‘ravonlik va zulm tugatilgan, amirning hazinasi butun mamlakatga bo‘lib berilgan, hamma insonlar undan foydalanadi, mamlakatda ocharchilik va qashshoqlik yo‘q ekan. Barcha muammolar hal qilingan, hamma dardlarga shifo topilgan ekan. Nihoyat, 22-23 baytlarda amir barcha gunohkorlarni avf etgan va hech qachon jahl qilmasligi tavsiflanadi. Yuqorida qayd etilgan baytlardan tashqari mavjud bo‘lgan 17 ta baytda amirning jasoratlari va ijobiy, namunali faoliyati tavsiflanadi.

Rudakiy saroy shoiri sifatida juda ko‘p qasidalar yozgan, ammo uning qasidalarini so‘nggi davrlardagi ko‘pchilik shoirlarning asarlari bilan taqqoslab ko‘rsa, Rudakiy qasidalarini o‘zining uslubi, ohangi va g‘oyasi bilan boshqalardan tamoman ajralib turadi. Uning qasidasidagi madh – qorani oq, johilni – olim deb maqtab, mukofot olish uchun yozilgan asarlar emas¹⁶. Shoir she‘rning kuchini juda yaxshi sezar, unga ishonar va undan ustalik bilan foydalanar edi. Shoir ko‘pgina she‘rlarida, xasislik va ta‘magirlikka qarshi kurashadi:

Boylik, yo‘qchilikda dunyo ahlini
Tokay hisoblaysan xasis – laim deb
Dunyodan ta‘mani uzgan chog‘ingda
Bilursan jahonni butkul karim deb¹⁷.

Shuning uchun ham Rudakiy qasidalaridagi madhlar ta‘magirlikdan juda uzoq. Ular biror mukofot ilinjida yozilgan, quruq va asossiz maqtovdan iborat asarlar emas. Shohlar va ayonlarga atab she‘lar yozishdan maqsad ularga pand-nasihat qilish va yaxshilikka boshlash ekanini shoirning o‘zi shunday qayd qiladi:

Nazm qaydiga tushdim xush ovozlikdan,
Husnim gunohi-la bo‘ldim zindonda.
Kattakon ayonlar bilan o‘tirdim,
Ularni sinadim ochiq, nihonda.
Ruxsatdan o‘zgani talab etmadim,
Ehsonidan qoldim men pushaymonda¹⁸.

Tadqiqotda Rudakiy hayot taraqqiyotini to‘g‘ri dialektik tushunsa ham, jamiyat taraqqiyoti masalalarida o‘sha davr sharoitidan kelib chiqqan holda o‘z fikrlarini ilgari surganligi qayd etilgan. O‘rta asrlarda yashagan hamma mutafakkirlar singari, Rudakiy ham “yaxshi podsho” g‘oyasini ilgari surar, odil va raiyatparvar shoh mamlakatni gullatib-yashnatishi, xalqning ahvolini yaxshilashi mumkin deb, qattiq ishonar edi. Shuning uchun ham u shohlarni yaxshilikka undab:

Qo‘lingda qilich bo‘lsa ham olmos,
Odamni nohaq o‘ldirmoqqa-mas¹⁹,

¹⁵ Мирзаев А.М. Рудакий. Москва.: Наука. 1968, - Б-182

¹⁶Бертельс Е. Э., История персидско-таджикской литературы, Москва.: 1960. - Б-25

¹⁷ Мирзаев А.М. Рудакий. Москва.: Наука. 1968. Б-188

¹⁸ Мирзаев А.М. Рудакий. Москва.: Наука. 1968, - Б.189

deydi.

Mutafakkir shoir xalqning ahvoliga butun qalbidan yonar edi. Shuning uchun ham uning ijodida, uning dunyoqarashida o'z davrining rasmiy mafkurasiga qarama-qarshi yondashuvda turgan ilg'or mafkuraviy ta'limot unsurlari, xalq mafkurasi unsurlari ustun turadi. Rudakiy ijodida falsafiy erkin fikrlilik, aql-idrokni hamma narsadadan yuqori qo'yish, ilmu-donishga intilish, hayotning o'zidan olingan tajribaning qadriga yetish, narsalarning tashqi ko'rinishidan ichki mohiyatini ajrata bilish, mehnatkash kishilarga xayrixohlik va insonparvarlik g'oyalari ko'ramiz.

Hozirda ijtimoiy adolat muammolari inson huquqlari va demokratiya g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Xalqaro huquq sohasidagi hujjatlarda ham bu tushunchaga jiddiy e'tibor berilmoqda. Jumladan, BMT hujjatlarida ijtimoiy adolatga shunday ta'rif beriladi: "Ijtimoiy adolat insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirishni va moddiy resurslarni adolatli taqsimlashni anglatadi. Bu sohadagi faoliyat sog'liqni saqlash va ta'lim kabi muhim xizmatlarga umumiy dahldorlikni ta'minlash, dastlabki bosqichida teng imkoniyatlarni yaratish, noqulay (nochor) vaziyatdagi shaxslarni himoya qilish, iste'mol hamda daromadlar olish kabi sohalarda muvozanatni (mutanosiblikni) ta'minlashga qaratilgandir"²⁰. Shu ma'noda uning umuminsoniy jihatlariga, demokratik mohiyatiga katta e'tibor qaratilayotganligi tabiiydir.

Tadqiqotda Abu Abdulloh Rudakiy falsafasidagi adolat axloqiy tushunchasi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-axloqiy kategoriya sifatida talqin etilgan:

- siyosiy adolat davlat kuchini;
- huquqiy adolat qonun mavqelarini;
- axloqiy-ma'naviy adolat esa ma'naviyat kuchini o'zida aks ettirishi ta'kidlangan.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, adolat insonlarning bir-biriga, davlatni fuqarolarga bo'lgan munosabatida o'zaro muvofiqlikni ifodalaydi, qonunlarga rioya qilishni bildiradi. Rudakiyning adolat haqidagi qarashlarida muhabbat qalbning mulki ekanligi va adolat qalbdan boshlanishi tahlil qilingan. Bu muqaddas tuyg'u aqldan ustun kelib, qalbnı makon tutadi. Muhabbat tuyg'usi makon tutgan qalb sohibida faqat ezgulik va ruhiy poklik hukmronlik qiladi. Muhabbat o'z sohibini adolatparvar, insonparvar, vatanparvar, imon-e'tiqodli, muloyimlik kabi go'zal fazilatlar bilan bezaydi. Muhabbat axloqiy tushunchalarning eng nafislarini, ya'ni hayo, ibo, or-nomus, shafqat, mehribonlik kabilarni to'laligicha o'zida mujassam etgan axloqiy qadriyatdir. Adolat meyorlari ijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya asosida shakllanadi. Shu sababli ham insonda tabiiylikka nisbatan ijtimoiylik, tarbiyalanganlik ta'siri kuchlidir. Ta'lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning xatti-harakatlarini, ular o'rtasidagi munosabatlarni adolat bilan bog'lanmagan tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi. Shu bois, adolat tarbiyasi asosan quyidagi vazifalarni bajaradi: insonlarning yuksak axloqiy

¹⁹ Шомухамедов Ш., Форс тожик адабиёти классиклари. Тошкент.: Ўқитувчи. 1963. - Б-25

²⁰ Права человека и работа в социальной сфере :Центр по правам человека ООН. -Женева, 1995. - С.16.

g'oyalarga sodiqligini hamda sha'n va qadr-qimmatini saqlashni oliy axloqiy xislatlar, deb tushunishini ta'minlash; axloqan pok, ma'nan boy, vijdonli, mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlarni yetishtirish; yuksak axloqiy madaniyat sohibi, milliy iftixor va milliy g'ururni namoyon etish tuyg'ularini mustahkamlashdan iborat.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda Abu Abdulloh Rudakiy axloqiy qarashlarining ahamiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida mutafakkir axloqiy qarashlaridagi adolat talqinining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati hamda adolat g'oyasini zamonaviy jamiyatga transformatsiyalash istiqbollari tadqiq etilgan.

Abu Abdulloh Rudakiy hayotning mazmun-mohiyatini adolatli bo'lish va o'zgalarga xizmat ko'rsatishdan iborat, degan g'oyani ilgari suradi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, bu dunyo go'zallik va ezgulik namunalariga to'la. Shuning uchun ham unga xafsalasizlik yotdir. Abu Abdulloh Rudakiy insonning hayotini doimiy harakatda, izlanishda, o'qish-o'rganish va ilm-hunarni egallashda ko'radi. U, bir so'z bilan aytganda, inson hayotining ma'nosini adolatni ustuvor bilish va axloqiy go'zallikda ko'radi. Axloqan go'zal insongina o'zidan yaxshi nom qoldirib, mazmunli hayotga musharraf bo'la oladi. Shoir o'z qarashlarini she'riy misralarda ifodalab, barcha kishilarni go'zal xulq-odobga oshno bo'lishga chaqiradi. Bunda asosan kamtarlik, oliyjanoblik, himmat va g'ayrat kabi axloqiy fazilatlarni madh etishni o'zining maqsadi, deb biladi.

